TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 9-sentabr | 254-10-212-Q/24 | Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 13 avgustdagi “Shahar va tuman hududlaridagi ichki yo‘llar egallagan yer maydonlarini ushbu hududlarning Obodonlashtirish boshqarmasiga doimiy foydalanish huquqi bilan ajratib berish to‘g‘risida”gi 585-10-0-Q/24-sonli qarori ijrosi to’g’risida

Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 13 avgustdagi “Shahar va tuman hududlaridagi ichki yo‘llar egallagan yer maydonlarini ushbu hududlarning Obodonlashtirish boshqarmasiga doimiy foydalanish huquqi bilan ajratib berish to‘g‘risida”gi 585-10-0-Q/24-sonli qaror**i** ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6-, 10-, 25-moddalariga asosan, **qaror qilaman**:

1. Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 13 avgustdagi “Shahar va tuman hududlaridagi ichki yo‘llar egallagan yer maydonlarini ushbu hududlarning Obodonlashtirish boshqarmasiga doimiy foydalanish huquqi bilan ajratib berish to‘g‘risida”gi 585-10-0-Q/24-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Ilovaga asosan, tuman hududidagi ichki yo‘llar egallagan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan davlat zaxirasidagi yer maydonlarini tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga doimiy foydalanish huquqi bilan ajratib berilganligi inobatga olinsin.

3. Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (A.Sultonov):

davlat xizmatlari markazi orqali arxitektura rejalashtirish topshirig‘i ishlab chiqish uchun buyurtmalar berilsin, hamda loyiha-smeta hujjatlari tayyorlash uchun litsenziyaga ega loyiha tashkiloti bilan o‘rnatilgan tartibda shartnoma tuzish;

loyihalash uchun yer osti muhandislik inshootlarining ijro surati tushirilgan 1:500 nisbatdagi topografik xarita va geologik xulosa ishlab chiqish uchun litsenziyaga ega korxonasiga buyurtma berish;

transport vazirligi huzuridagi yo‘l-qurilish ishlarini nazorat qilish davlat inspeksiyasiga xabarnoma yuborish;

mazkur hududda joylashgan muhandislik tarmoqlarini ko‘chirish yoki muhofaza hududini saqlab qolish ishlari o‘z mablag‘lari hisobidan amalga oshirilishini inobatga olish vazifalari yuklatilsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi tuman filiali (O.Xoldorov) ushbu qarorga muvofiq belgilangan tartibda kadastr hujjatlarini rasmiylashtirsin hamda davlat ro‘yxatidan o‘tkazsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari S.Mirsagatov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi  **S.Ergashev**

Toshkent tuman hokimining
2024-yil 9-sentabrdagi
254-10-212-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Toshkent tumani Obodonlashtirish boshqarmasiga doimiy foydalanish huquqi bilan ajratib berilayotgan ichki yo‘llar egallagan yer maydonlari
RO‘YHATI

№	MFY nomi	Ko‘cha nomi	Maydon, ga	Uzunligi, km
1	Chig‘atoy	Chig‘atoy ko‘cha	0,92	1,06
2		Chig‘atoy berk	0,13	0,27
3		Chig‘atoy 5-Berk	0,13	0,23
4		Chigatoy 4-berk	0,13	0,27
5		Shifobaxsh suvlar	0,06	0,15
6		Shifobaxsh suvlar Tor	0,05	0,07
7		Ozod 1-tor koc	0,13	0,22
8		Orzu ko‘cha	0,04	0,11
9		Chigatoy 5-Tor ko‘chasi	0,1	0,16
10	Obodlik	Obod ko‘chasi	0,87	1,02
11		Xidoyat ko‘chas	0,32	0,60
12		Tenglik ko‘cha	0,42	0,74
13		Mukammal ko‘ch	0,25	0,56
14		Ittifok ko‘chasi	0,08	0,16
15		Janbul ko‘cha	0,03	0,07
16		Oxunboboyev ko‘ch	0,02	0,08
17	Oqibat	Oqibat ko‘chas	5,0	7,02
18	Qirariq	Yukorisoy ko‘cha	1,29	2,15
19		Nurxayot ko‘cha	0,46	0,72
20		Bogishamol ko‘cha	0,06	0,18
21		Qir ariq ko‘cha	2,36	3,26
22	Qorasaroy	Qorasaroy ko'cha	2,29	3,18
23	Shirin	Mangulik ko‘chas	0,13	0,22
24		Mustaxkam	0,53	0,81

		ko'cha		
25		Taraqqiyot ko‘cha	1,13	1,81
26	Tutzor	Qadrdonlar ko‘cha	1,13	1,59
27		Lutfiy ko‘chasi	0,67	0,72
28		Nurmakon ko‘chasi	0,25	0,37
29	Xasanboy guzar	Yoshlar ko‘chasi	2,63	3,37
30	Bunyodkor	8-kvartal	1,23	1,93
31	Qizg‘aldoq	6-kvartal	1,02	0,91